

TEXNOLOGIYA TA'LIMI BO'YICHA HUNARMANDCHILIK SOHALARINI MILLIYLIK ASOSIDA AMALIY O'RGATISH ASOSLARI

Murtozayev Melibek Zokirovich, Doniyorova Shahnoza Erkinovna

A.Qodiriy nomidagi JDPI, Fizika va texnologik ta'lism fakulteti, O'zbekiston

Annotasiya: Ushbu maqolada texnologiya fani bo'yicha hunarmandchilik sohalarini milliylik asosida amaliy o'rgatishga oid metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya fani, hunarmandchilik, hunarmandchilik turlari, milliylik, yog'och, metall, gazlama va turli xil materiallarga ishlov berish.

Umum o'rta ta'lism maktab texnologiya ta'limi uchun qabul qilingan Davlat ta'lism standarti (DTS)ni maqsadi yosh avlodni milliyligimizdan, o'tmishtagi va hozirda faoliyat ko'rsatayotgan milliy xalq hunarmandchilik sohalariga oid boshlang'ich bilimlar berish, boshlang'ich tayanch ko'nikma va malakalarga ega qilishdan iboratdir. Texnologiya fani o'qituvchilari ushbu DTS asosida tuzilgan o'quv dasturlari bo'yicha rivojlanish taqozosi bilan ayrim hollarda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritgan holda, yog'och, metall, gazlama va turli xil materiallarga ishlov berishga asoslangan milliy halq hunarmandchilik sohalari bo'yicha 5-9 sinf o'quvchilariga boshlang'ich bilimlar berish va ularda boshlang'ich ko'nikmalarni shakllantirishlari kerak. Buning uchun Texnologiya fani o'qituvchilari 5-7 sinflarda ajratilgan ma'lum o'quv soatlari mobaynida milliy halq hunarmandchiligi turlari, tarixi, ularda tayyorlanadigan mahsulot buyumlar turlari, xalq hunarmandchilik maktablari, xalq hunarmandchilik sohalarini asoschilari haqida, 8-9 sinflarda ajratilgan o'quv soatlari mobaynida bevosita milliy halq hunarmandchilik texnologiyalarini, hunarmandchilik korxonalarini ishlab chiqarishining uslubiy asoslarini, ularni bozor sharoitida faoliyat ko'rsatish va rivojlanish istiqbollarini o'rgatish lozim bo'ladi.

Texnologiya fani o'qituvchisi oldida mavjud o'quv dasturlari asosida texnologiya ta'limi yo'nalishlari bo'yicha yog'och, metal, gazlama va turli xildagi materiallarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik turlarini, qaysi tartibda o'quvchilarga o'rgatish kerak degan muammoni hal qilish vazifasi turadi. Ko'p yillik tajribalarimizdan kelib chiqqan holda, o'quvchi yoshlarni yosh xususiyatlari va hunarmandchilik texnologiyasi mohiyati bo'yicha milliy xalq hunarmandchilik sohalarini quyidagi tartibda o'qitish maqsadga muvofiqli.

1. Milliy xalq hunarmandchilik sohalarini ularda ishlatilayotgan material turiga qarab umumlashtirish, yani yog'ochga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalari, metallga ishlov berishga asoslangan, gazlamaga ishlov berishga asoslangan, turli xil material (tosh, suyak, tuproq gelina,

plastmassa va boshqa) larga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalariga bo‘lish kerak.

2. Texnologiya fani bo‘yicha yog‘och va metall hamda gazlamalarga ishlov berishga taalluqli hunarmandchilik sohalaridan o‘quv dasturi bo‘yicha qaysi birini o‘qitishni soha murakkabligiga qarab, sinflarga taqsimlash kerak.

3. Yosh avlodni o‘tmishdagi milliy xalq hunarmandchilik texnologiyalaridan imkon qadar xabardor qilish zaruriyati bo‘yicha ayrim mavzularni to’garaklarda o‘qitish lozim bo‘ladi.

Xalq hunarmandchilik sohalarini ishlov berilayotgan materiali bo‘yicha umumlashtirish va sinflararo quyidagicha o‘qitish maqsadga muvofiqdir.

Yog‘ochlarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalariga: yog‘och o‘ymakorligi, beshikchilik, aravachilik, egarchilik, sandiqchilik, sandalchilik, savatchilik, buyrachilik, karovot (so‘ri) chilik, musiqa cholg‘u asboblarini tayyorlaydigan hunarmandchilik, mebelchilik, milliy rom va eshiklar, uy jihozlari tayyorlaydigan hunarmandchilik va boshqalar kiradi.

Metallarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalariga degrézlik, pixtakorlik, o‘ymakorlik, chilangularlik, zargarlik, pichoqsozlik, misgarlik, qandakorlik va boshqalar kiradi.

Gazlamalarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalariga kashtachilik, quroqchilik, zardo‘zlik, choponchilik, do‘ppichilik, gilamchilik, kigizchilik, ko‘nchilik, mo‘ynachilik, so‘zana-pardachilik, poyafzal kosibchiligi va boshqalar kiradi.

Turli xil materiallarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalariga ganchkorlik, haykaltaroshlik, kulolchilik, suyak va tosh o‘ymakorligi, tandirchilik, qandolatchilik va boshqalar kiradi.

Sinflararo o‘qitilish quyidagicha olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

5 va 8-9 (yuqori sinflarda bevosita mahsulot tayyorlash) sinflarda yo‘nalishlarga mos holda yog‘ochga ishlov berishga asoslanganlardan yog‘och o‘ymakorligi, o‘ymakorlikka asoslangan beshikchilik, egarchilik, metallga ishlov berishga asoslangan degrézlik, quymakorlik, chilangularlik, gazlamaga ishlov berishga asoslangan kashtachilik, quroqchilik, kashtachilikka asoslangan choponchilik, do‘ppichilik, kabi hunarmandchilik sohalarini o‘qitish.

6 va 8-9 (yuqori sinflarda bevosita mahsulot tayyorlash) sinflarda yo‘nalishlarga mos holda yog‘ochga ishlov berishga asoslangan sandiqchilik, aravachilik, karovot(so‘ri)chilik, metallga ishlov berishga asoslangan zargarlik, pichoqsozlik, gazlamaga ishlov berishga asoslangan gilamchilik, ko‘nchilik kabi hunarmandchilik sohalarini o‘qitish.

7 va 8-9 (yuqori sinflarda bevosita mahsulot tayyorlash) sinflarda yo‘nalishlarga mos holda yog‘ochga ishlov berishga asoslangan savatchilik,

buyrachilik, sandalchilik, metallga ishlov berishga asoslangan misgarlik, qandakorlik, gazlamaga ishlov berishga asoslangan kigizchilik, so‘zana – pardachilik kabi hunarmandchilik sohalarini o‘qitish maqsadga muvofiqdir.

To‘garaklarda yosh avlodga yog’ochga ishlov berishga asoslangan musiqa cholg‘u asboblarini tayyorlaydigan hunarmandchilik, mebelchilik, milliy rom va eshiklar, uy jihozlari tayyorlaydigan hunarmandchilik, metallga ishlov berishga asoslangan pixtakorlik, gazlamaga ishlov berishga asoslangan mo’ynachilik, poyafzal kosibchiligi va turli xil materiallarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalaridan ganchkorlik, haykaltaroshlik, kulolchilik, suyak va tosh o‘ymakorligi, tandirchilik, qandolatchilik kabilarini o‘rgatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Texnologiya fani bo‘yicha qabul qilingan DTSlarga tahlil asosida e’tibor qilsak, har qanday hunarmandchilikni asosi va uni yuzaga chiqaradigan hamda bezash vazifasini bajaradigan naqqoshlik haqida kam e’tibor qilingan. Qaysi xalq hunarmandchiligi sohasi bo’lmasin, uni o‘rgatishdan oldin o‘quvchilarga albatta naqshchilik haqida o‘rgatish lozimdir. Chunki, xalq hunarmandchiligidagi tayyorlanayotgan mahsulotini naqsh solmasdan mahsulotni bezak naqhsiz tayyorlay olmaydi.

Foydalanimagan adabiyotlar

1. Umumiy o’rta ta’limning milliy o’quv dasturi loyihasi. Respublika ta’lim markazi. 2020 yil.
2. M.Z.Murtazayev. Bo’lajak texnologiya ta’limi o’qituvchilarini keng diapozonda o’z mahoratini ta’minlashni ilmiy uslubiy asoslari. Jizzax . 2020. 130 bet.
3. Asadov Y.M. O’quvchilarni ongli kasb tanlashga tayyorlashning psixologik omillari. Maktab va hayot. -T. 2004. №3.
4. Olimov .Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. o’quv qo’llanma. –T.: 2006. 164 b.
5. Sharipov Sh. Kasbiy ta’lim metodikasi fanidan laboratoriya mashg’ulotlari uchun metodik qo’llanma. -T: TDPU, 2007. 147 b.
6. Jalolov A. Kasb kanday tanlanadi. - T.: Yangi asr avlodi, 2010.
7. Akbarov B.A. O’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirishda salbiy ta’sir ko’rsatuvchi omillar. Murabbiy mahorati. Toshkent. 2017. №2. - B. 42-45.
8. Муртозаев, М. З., Юсупов, К., & Рахматов, В. (2008, October). Системный подход к определению практической значимости учебной дисциплины. In *Образование через всю жизнь: непрерывное образование для устойчивого развития»*. Материалы VI Международной конференции. г. Минск (pp. 2-3).

9. Муртозаев, М. З. (2009). О сегодняшнем состоянии учебных планов подготовки учителей трудового обучения: проблемы и решения.
- 10.Муртозаев, М. З. (2016). Вопросы модернизации процесса подготовки высококвалифицированных учителей трудового обучения. *Молодой ученый*, (24), 484-486.
- 11.Mamajonova, K., Murtazayev, M., & Gapparov, B. (2020). PAZANDACHILIK ASOSLARI. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 12.Murtazayev, M. Z., & Yo'ldashev, M. Q. (2020). TEKNOLOGIYA TALIMI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI. *Научное знание современности*, (4), 39-44.
- 13.Муртазаев, М. З., & Дониёрова, Ш. Э. (2020). УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА АМАЛИЙ МАШГУЛОТЛАРНИ МИЛЛИЙЛИК АСОСИДА ТАШКИЛ ҚИЛИШ АСОСЛАРИ. *Научное знание современности*, (3), 25-28.
- 14.Murtazayev, M. (2020). Технология таълими дарсларида ўқувчиларда билим, кўникма ва малакаларни шакллантиришнинг айрим масалалари. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-50.
- 15.Ismailov T.J, Tagaev X, Kholmatov P.K, Yusupov K.Y, Alkarov K.Kh, Orishev Zh.B Karimov O.O. (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(08), 3669-3677.
- 16.Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.
- 17.Orishev, J. (2020). ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ПЕДАГОГИК МАСЪУЛИЯТИ . *Научно-просветительский журнал "Наставник"*, 1(1).
18. Sharipov, S. (2020). КАСБИЙ ПЕДАГОГИКА. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 19.Sharipov, S. (2020). ИЗОБРЕТАТЕЛЬСКОЕ ТВОРЧЕСТВО КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛИЗМА БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 20.Sharipov, S. (2020). ИЖОДКОРЛИК ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШ: МЕТОДЛАРИ, МАЗМУНИ ВА ТАШКИЛИЙ ШАКЛЛАРИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

- 21.Sharipov, S. (2020). ТАЛАБАЛАР ИХТИРОЧИЛИК ИЖОДКОРЛIGИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 22.Sharipov, S. (2020). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЛАБАЛАР ИЛМИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ ТИЗИМ И. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 23.Sharipov, S. (2020). ИДЕИ О ТВОРЧЕСКОМ ТРУДЕ В УЧЕНИИ КД УШИНСКОГО. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 24.Sharipov, S. (2020). ТРЕБОВАНИЯ К ФОРМИРОВАНИЮ ЛИЧНОСТИ СОВРЕМЕННОГО УЧИТЕЛЯ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 25.Sharipov, S. (2020). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЁШЛАР МУСТАҚИЛ-ИЖОДИЙ ФИКРЛАШИНИ ФАОЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.